

Nematova Surayyo*Qashqadaryo, Qarshi 29-maktab o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek tilshunosligi leksikografiya sohasida katta tarixga egaligi, yo'nalishlarining kengayganligi hamda yangi-yangi turlarining paydo bo'lganligi haqida malumotlar misollar bilan yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *leksikografiya, ensiklopedik va lisoniy lug'atlar, umumiy va xususiy (maxsus) lug'atlar, izohli lug'atlar, bir tilli lug'atlar, ikki tilli va ko'p tilli tarjima lug'atlari, izohli lug'at.*

Tilimizdagi so'zlarning alifbo tartibida joylashtirilishiga lug'at, lug'at tuzish qoidalarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limiga leksikografiya deyiladi. Leksikografiya yunoncha "so'zlarni yozaman" demakdir. Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co'z, so'zga oid va graphoyozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Ko'zlangan maqsad jihatidan lug'atlar 2 xil bo'ladi:

1. Ensiklopedik - qomusiy lug'atlar.

2. Lingvistik lug'atlar.

Bu lug'atlar o'zaro farqlanadi:

Qomusiy lug'atlarda narsa, hodisa, tushuncha, shaxs haqida ma'lumotlar qayd etiladi.

Lingvistik lug'atlarda barcha mustaqil va yordamchi so'zlar qayd etiladi.

Qomusiy lug'atlar xarakteriga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. Umumxarakterdagi qomuslar: O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi.

2. Maxsus qomuslar: Meditsina ensiklopediyasi, Adabiyotshunoslik ensiklopediyasi.

Lingvistik lug'atlar ham bir necha turli bo'ladi:

1. Izohli lug'atlar

2. Bir tilli lug'atlar

3. Ikki tilli tarjima lug'atlar

4. Ko'p tilli tarjima lug'atlari.

Tildagi barcha so'zlarning qanday ma'nolarni bildirishini tanishtiruvchi lug'at izohli lug'at hisoblanadi. Bir tildagi so'z ikkinchi tilda qanday so'zga teng kelishini ko'rsatuvchi lug'at tarjima lug'ati sanaladi. So'zlarning to'g'ri yozilishini ko'rsatuvchi lug'atga imlo lug'ati deyiladi. Lug'at oldiga qo'yilgan maqsadiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: izohli lug'at, tarjima lug'ati, imlo lug'ati va boshqalar. Lug'at turlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Yuqorida, asosan, o'zbek lug'atchiligida mavjud bo'lgan va amalda foydalanib kelinayotgan lug'at turlariga ko'rsatildi. Bu narsa lug'atlarning vazifa doirasi naqadar kengligini va ularning o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Yuqorida lug'atlar til taraqqiyoti davrida ma'lum ehtiyojlar

natijasida paydo bo'lgan degandik. Masalan, biron so'zni izohlash, boshqa tillarda qanday atalishi bilan bog'liq holatlar. Abduvahob Madvaliyev boshligida tuzilgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" da so'zlarning ma'no qirralarini izohlash bilan bir qatorda uning qaysi tildan kirib kelganligi va o'sha tilda qanday yozilishi ham keltirilgan. Bugungi kunda leksikografiya sohasida qilinayotgan amaliy ishlar tahsinga loyiq. Bu borada olimlarimiz tomonidan kengqamrovli faoliyatlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", "Bolalar ensiklopediyasi", "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi", "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining imlo lug'ati" va qator tarjima lug'atlar, terminologik lug'atlarning yaratilishi fikrimizning yaqqol dalilidir. "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati"ning tuzilishi esa o'zbek tilini o'rganishga bel bog'lagan xorijliklar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu kabi lug'atlarning yaratilishi dunyo hamjamiyatida ona tilimizning nufuzini oshishiga yaqindan yordam beradi. Mutaxassislarining aytishicha, hozirda Avstraliyada va AQSHdagina o'zbek tilida o'qitiladigan maktablar bor ekan². O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni ham yil sayin ko'paymoqda. "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" kabi lug'atlar esa o'zbek tilini o'rganishdagi bir qator qiyinchiliklarning oldini oladi. Har qanday til leksikasidagi taraqqiyot yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ma'lum lug'aviy birliklarning eskirib iste'moldan chiqishi, so'zlarning yangi ma'no(lar) kasb etishi yoki ayrim ma'nolarini yo'qotishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga yetgach, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj seziladi. Ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" ham o'z davrida ana shunday ehtiyoj tufayli O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti lug'atshunos olimlarining ulkan mehnatlari evaziga yaratildi va ma'lum vaqtga qadar o'z vazifasini o'tab keldi. Lekin bu lug'at ma'lum sabablarga ko'ra, xususan, lug'atga so'z tanlashdan tortib so'z ma'nolarini belgilash, qayd etish, izohlash masalalarida ham bir qator kamchiliklarga egaligi, o'tgan asrning 70-90-yillarida o'zbek tili leksikasida ro'y bergan katta o'zgarishlarni o'zida aks ettirmaganligi, eng asosiysi – yangi davrga, respublikamizning mustaqillik holatiga mos, muvofiq kelmaydigan siyosiy, mafkuraviy qarashlarni ma'lum darajada ifodalaganligi tufayli hozirgi kun talablariga javob bera olmay qoldi. Chunonchi, o'zbek tilining bebaho mulki bo'lgan, hayotda bekamu ko'st xizmat qilayotgan juda ko'p so'zlar sho'ro davrida "diniy", "eskirgan" kabi tamg'alar bilan tazyiqqa uchradi, iste'moldan chiqarildi, ularning o'rnini "ruscha-baynalmilal so'zlar" egalladi. Bunday munosabat ikki jildli izohli lug'atda ham o'z aksini topgan edi.

Xulosa o'nida shuni ta'kidlashimiz lozimki, o'zbek leksikografiyasi hozirgi ko'rinishiga kelgunga qadar asrlar silsilasidan o'tib, sayqallanib kelmoqda. Bu taraqqiyotning yuzaga chiqishida esa leksikograflarimiz va olimlarimizning hissasi kattadir. Yaqin o'n yilliklarda o'zbek leksikografiyasi bundanda rivoj topib, bugungidanda mukammalroq qiyofa aks ettiradi degan umiddamiz. Yuqorida biz o'zbek leksikografiyasining bir qatrasinigina ko'rib o'tdik. Leksikografiya bu katta ummon va ummon deyarli har kuni to'lib boradi. Bu ummonni kezib, har bir qatrasini

o'rganish uchun esa katta vaqt va kuch talab etiladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, ummonlar ham tomchilardan hosil bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil 10-sentyabrdagi 311- sonli qarori va unga ilova qilingan Davlat dasturi
2. " O'zbek tilining izohli lug'ati " 5 jildli. " O'zbekiston nashriyoti " 1-jild.Toshkent- 2020
3. S. Normamatov " Leksikografiya asoslari " "Nodirabegim " nashriyotiToshkent-2021
4. H.Fattohov " O'zbek leksikografiyasi tarixiga bir nazar " // O'zbek tili va adabiyoti . Toshkent. 1981. 3 –soni.
5. B. To'xliyev " Adabiyot " Akademik litsey va kasb –hunar kollejlari uchun. "O'qituvchi " Toshkent 2003.